DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-33 Pages: 302-308

Oriental Journal of Philology



SEMANTIC ANALYSIS OF ARABIC FOLK PROVERBS DEDICATED TO WOMEN

Shaxnoza B. Abdullayeva
Lecturer, Department of Eastern Languages
Oriental University
Email: shahinazaabdullayeva@gmail.com
Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: women, daughters, mother figure, role of women in the family, elderly women, classification, folk oral literature.

Received: 06.03.25
Accepted: 08.03.25
Published: 10.03.25

Abstract: This article aims to study Arabic folk proverbs about women in various classifications. In particular, proverbs about daughters, the image of a mother, marriage, the role of women in the family, and elderly women are analyzed in separate groups. Through this, the article explores how women have been evaluated in folklore.

AYOLLAR MAVZUSIGA BAG‘ISHLANGAN ARAB XALQ MAQOLLARI SEMANTIK TAHLIL

Shaxnoza B. Abdullayeva
O‘qituvchi, Sharq tillari kafedrasi
Oriental Universiteti
Email: shahinazaabdullayeva@gmail.com
O‘zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: ayollar, qiz farzand, ona siymosi, oiladagi ayolning roli, keksa ayollar, tasnif, xalq og‘zaki ijodi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ayollarga oid arab xalq maqollarni turli tasniflarda o‘rganish maqsad qilingan. Xususan, qiz farzand, ona siymosi, turmushga chiqish, oiladagi ayolning roli va keksa ayollar haqida shakllangan maqollar alohida guruhlar asosida tahlil qilindi. Shu orqali xalq og‘zaki ijodida ayollarga qanday baho berilgani yoritildi.

СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ АРАБСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦ ПОСВЯЩЁННЫХ ЖЕНЩИНАМ

Шахноза Б. Абдуллаева
Преподаватель, кафедра восточных языков
университет Ориентал
Email: shahinazaabdullayeva@gmail.com
Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: женщины, девочки, образ матери, роль женщины в семье, пожилые женщины, классификация, устное народное творчество.

Аннотация: Целью данной статьи является изучение арабских пословиц о женщинах в различных классификациях. В частности, в отдельных группах анализировались пословицы о дочерях, образе матери, браке, роли женщины в семье, о пожилых женщинах. Это проливает свет на то, как ценятся женщины в устном фольклоре.

Kirish: Maqollar ko‘p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat’iy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda xar bir so‘zning mano xilma-xilligi, iboralarning turg‘unligi, shakliy barqarorlik ustunlik qiladi. Ammo qollanish o‘rniga qarab ularning ma’no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. Shuning uchun ham maqoldagihar bir so‘zga alohida e’tibor berish kerak (Mirzayev, 2005, p. 2).

Ayollar haqida yaratilgan maqollar esa o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi, chunki ular jamiyatning ayollarga bo‘lgan munosabati, ularning oiladagi va ijtimoiy hayotdagi o‘rnini ochib beradi.

Ayollarga oid maqollarni o‘rganish nafaqat ularning tarixiy ahamiyatini anglash, balki zamonaviy jamiyatdagi o‘rnini qayta ko‘rib chiqishga ham yordam beradi. Zero, xalq maqollari insoniyat tafakkurining ko‘zgusi bo‘lib, ular orqali jamiyatning o‘tgan asrlarda va hozirgi kundagi qarashlari o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilish mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Arab folklorini o‘rganishning ilk bosqichi (VIII–XII asrlar) da arab filologlari, asosan, xalq maqollarini yig‘ishga, to‘plashga harakat qilishgan. O‘sha davrlarda arab xalq og‘zaki ijodining eng ommaviy janri–maqol hisoblangan. VIII–XII asrlarda arab xalq maqollarini to‘plab, tavsiflash hamda alohida majmualar holida umumlashtirishga diqqat qilinadi. Bu davrda turli mualliflarning say–harakatlari bilan 44 ta arab maqollari to‘plamlari tuzilgan bo‘lib, shundan bizgacha atigi 14 tasi saqlanib qolgan, xolos (Shomusarov, 2002, p. 6). Ahmad ibn al–Husayn al–Maydoniyning “Majma al – amsal” kitobida har bir maqolning tarixi, kelib chiqish manbasi va ishlatilish konteksti tafsilotlari bilan bayon etilgan. Abdul Karim Juhaymoniyning الأمثال الشعبية في قلب جزيرة العرب “Al-amsal ash-sha’biyya fi qalb jaziyra al-arab” ushbu asari Saudiya Arabistonida keng tarqalgan 10,000 ga yaqin xalq maqollarini jamlaydi. Kitob 10 jilddan iborat bo‘lib, unda arab xalqining urf-odatlari, madaniy

qadriyatlari va hikmatli iboralari keltirilgan. Muallif maqollarni izohlar bilan sharhlab, ularning kelib chiqish tarixi va ijtimoiy ahamiyatini tahlil qilgan. Shuningdek, Robih Xudusiyning موسوعة الجزائر في الأمثال الشعبية "Mavsua al-Jazair fi al-amsal ash-sha'biyya" Jazoir xalq maqollariga bag'ishlangan ensiklopediya bo'lib, unda xalq og'zaki ijodi namunalarining to'plami berilgan. Muallif har bir maqolning ma'nosi va uning kelib chiqishini izohlab bergan. Ushbu asar Jazoir madaniy merosini o'rganish va xalq og'zaki ijodini tadqiq qilishda muhim manba hisoblanadi. Tadqiqot materiallarining xususiyatlaridan kelib chiqib, ular tavsifiy, qiyosiy va semantik tahlil asosida o'rganildi.

Tadqiqotning usullari. Ushbu maqolada ayollar mavzusiga bag'ishlangan arab xalq maqollari semantik tahlil qilindi.

Natijalar. Qiz farzand oilaning gulidir, u mehr va ezgulik timsoli sifatida qadrlanadi. Tarixiy va madaniy an'analarga ko'ra, turli jamiyatlarda qiz bolaga bo'lgan munosabat turli xil bo'lgan. Ayrim xalqlarda qiz mehribonlik va baxt keltiruvchi deb qaralsa, boshqalarda uni ortiqcha mas'uliyat yoki yuk, deb bilishgan. Shu sababli xalq maqollarida qiz farzandning hayotdagi o'rni, unga bo'lgan ijobiy yoki salbiy qarashlar o'z aksini topgan. Quyidagi maqollar aynan qiz farzand haqidagi xalq donishmandligining yorqin ifodalaridir.

Arablar johiliyat davrida qiz farzand tug'ilganida aytiladigan maqol.

هنيئا لك النافجة (Al-Maydani, 1976, p. 42)

Senga Nafaja (Wealth-enhancing) muborak bo'lsin!

Chunki ular qizning kelajakda turmushga chiqib, unga to'lanadigan mahr orqali oilaning boyligini oshiradi, deb hisoblashgan. Bu maqol ayolning o'z mulkiga egalik qilish huquqidan mahrum ekanligini hamda uning jismonan va aqlan ojiz deb qaralganini anglatadi.

فرحة ام بنت (Abdul Karim Juhayman, 1963, p. 45)

Onaning quvonchi - qiz.

Bu maqol ona bo'lish baxtini boshidan kechirayotgan, ammo kutilmagan natija bilan yuzlashgan ayolning holatini ifodalaydi. Ona homiladorlik paytida o'g'il tug'ishni orzu qiladi, lekin qiz farzand tug'adi. Chunki oilada, o'g'il ustun bolib, oilasini himoya qiladi, ona esa undan faxrlanib, boshini kotarib yuradi. Uning dastlabki quvonchi kutilmagan hayratga aylanadi. Ushbu maqolda insonning rejalar va taqdir o'rtasidagi ziddiyat aks ettiriladi. Hayotda ba'zan odamlar bir narsani orzu qiladi, lekin natija ularning kutganidan farqli boladi.

أم البنت مسنودة بخيط وأم الصبي مسنودة بحيط

(https://www.noonpost.com/37445/, 2020)

Qizning onasi ipga suyanadi, o'g'ilning onasi devorga suyanadi.

Bu maqol arab madaniyatida qiz va o'g'il farzandlarning oilaviy rolini aks ettiradi. Unda o'g'il farzand mustahkam tayanch sifatida ko'rilgan bo'lsa, qiz farzand zaifroq deb qabul qilingan.

“Ip bilan suyanish” zaiflikni, “devorga suyanish” esa mustahkamlik va ishonchni anglatadi .Bu maqol ko‘proq eski qarashlarga asoslangan bo‘lib, oilada o‘g‘il farzandning ahamiyati yuqori ekanligini ta’kidlash uchun ishlatilgan.

عقربتين على حيط ولا بنتين بالبيت (https://www.noonpost.com/37445/, 2020) .

Devorda ikki chayon bo‘lsa ham, uyda ikki qiz bo‘lmasin.

Bunda qiz farzand ko‘p bo‘lishi ba’zi jamiyatlarda og‘ir yuk sifatida ko‘rilganini ifodalaydi. Chayon xavfli va zararli jonzot sifatida qabul qilingan bo‘lsa-da, maqolda u hatto qiz farzanddan kamroq tashvish tug‘diradigan narsa sifatida tasvirlangan.Bu maqol jamiyatlarda qiz farzandga bo‘lgan salbiy qarashlarni aks ettirish uchun ishlatilgan.

اللي خلف البنات ما مات (Qoda Butarn, 1987, p.164)

Qiz farzandlar qoldirgan bo‘lsa, u hech qachon o‘lmagandir.

Bu maqolda qiz farzandlarning ota-onalariga sadoqati va mehribonligi ta’kidlangan. Ularning e’tibori va mehr-muhabbati sababli, ota-onalar o‘limidan keyin ham ularning xotirasi uzoq yashaydi.

اللي ما عندوش أخوات ما عرفوه الناس باه ما(Rabah Khadoussi, 1997, p. 136) .

Kimning opa-singillari bo‘lmasa, odamlar uning vafot etganini ham bilmaydi.

Bu maqol opa-singillarning oiladagi rolini ta’kidlaydi. Opa-singillar insonning hayotida muhim o‘rin egallaydi, ular o‘z yaqinlariga mehribon bo‘lishadi va ularning yo‘qligi insonning jamiyatda unutilib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin.

اللي ما عندو أنثى، ما ابكاو عليه(Izziddin Jilavji, 2007, p. 99).

Kimning qizi bo‘lmasa, uning o‘limida hech kim yig‘lamaydi.

Arab xalq maqollari ayollarni oilaning muhim a’zosi sifatida tasvirlaydi. Ularning mehribonligi, g‘amxo‘rligi va sadoqati tufayli oilaning barqarorligi ta’minlanadi. Qiz farzandlarning ota-onalariga nisbatan mehribonligi, uyda iliq muhit yaratishga qo‘shadigan hissasi ushbu maqollarda ijobiy tarzda yoritilgan.Bu maqol ham qizlarning oiladagi muhim o‘rnini ko‘rsatadi. Qizlar ota-onalariga nisbatan ko‘proq mehribon va g‘amxo‘r bo‘lib, ularning yo‘qligini ko‘proq his qilishadi. Ularning ota-onasi uchun ko‘rsatadigan g‘amxo‘rligi va sadoqati, jamiyatning ham ularni qadrlashiga sabab bo‘ladi.

البنات عمارة الدار.

Qizlar- uy obod qiluvchisi.

Bu maqolda qizlarning oilaviy hayotdagi ahamiyati ta’kidlangan. Ular uy ishlarida yordam beradi, onalariga tayanch bo‘ladi va oila muhitini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

الله يجعل لي في كل ثنيّة، وليّة.

Alloh menga har bir qizda,yordamchi qilsin.

Bu xalq iborasida qizlarning onalariga hamrohlik qilishi va ularga madadkor bo‘lishi aks etgan. Qizlar ko‘pincha onalari bilan yaqin aloqada bo‘lib, ularning muammolarini yengillatishga harakat qiladi.

ما يعجبك زين طفلة - حتى تشوف الفعايل. (Abdel Rahman Rabah, 2000, p. 7)

Qizning go‘zalligiga mahliyo bo‘lma –uning amallarini ko‘rmaguningcha.

Bu maqol go‘zallik va axloq o‘rtasidagi farqni tushuntiradi. Maqolda ifodalangan fikr quyidagicha izohlanadi: Go‘zallik doimo ishonchli mezon emas.Tashqi ko‘rinish inson haqida to‘liq tasavvur bera olmaydi. Yaxshi axloq va yaxshi amallar insonning haqiqiy go‘zalligini belgilaydi. Qizning go‘zalligi ham huddi shunday. Agar inson uning axloqini va fe’l-atvorini ko‘rmasdan faqat go‘zallik bilan baholasa, oxir-oqibat xatoga yo‘l qo‘yishi mumkin. Maqol insonlarni tashqi ko‘rinishga aldanmay, odamning ichki dunyosini, axloq va amallarini e’tiborga olishga undaydi.

البنات على لمّات (الأمهات)، والخيل على الصفا (Abd al-Qadir Budaoud, 2000, p. 7)

Qiz onasiga ko‘ra bilinadi, ot esa sifatiga. O‘zbekcha muqoboli-Onasini ko‘rib, qizini ol!

Qiz onasining xulq-atvorini meros qilib oladi. Ushbu maqolda qiz bolaning fazilatlari, odobi va tarbiyasi ko‘proq onaning ta’siri ostida shakllanishi ta’kidlanmoqda. Bunda ona qizining hayotdagi ko‘zgusi, namuna bo‘lishi lozimligi nazarda tutilgan. Shu bilan birga, ota naslning davomchisi sifatida farzandiga o‘zining sifatlari bilan ta’sir qiladi..

Ayollar har doim jamiyat hayotida muhim o‘rin tutgan. Ular nafaqat ona, rafiqa va opa-singil sifatida, balki oilaning tayanchi va jamiyatning asosi sifatida ham e’tirof etilgan. Xalq donishmandligi ayollarning turli fazilatlari, xulqi va jamiyatdagi o‘rnini maqollar orqali aks ettirgan. Ushbu maqollarda ayollarning sabr-toqati, donoligi, fidoyiligi va ba’zan o‘ziga xos fe’l-atvorlari tasvirlanadi. Bu bahsda ayollar mavzusiga bag‘ishlangan maqollarni ma’nolar asosida tartiblandi.

إن النساء شقائق الأقوام (Al-Maydani , 1976, p. 42)

Ayollar – qavmlar(erkaklar)ning tengidir.

Bu maqolda ayollarning erkaklar bilan haq-xuquqlarda tengligi va jamiyatning ajralmas qismi ekanligi ta’kidlangan. “شقائق” so‘zi “tengdosh, juft, ajralmas”, degan ma’nolarni anglatadi. Shu sababli, mazmunan “Ayollar jamiyatning muhim va ajralmas qismi” deb ham tushunish mumkin.

كل شيء مهه ما خلا النساء وذكرهن (Al-Maydani , 1976, p. 104)

Ayollardan va ularning zikridan boshqa har bir narsaning ishi oson.

Haqiqiy erkakning g‘ururi – oilasidir. Erkak uchun dunyodagi eng qiyin narsa o‘z sha’ni va oilasi haqida nojo‘ya gaplarni eshitishdir. Erkak kishi hayotning og‘ir sinovlariga dosh bera oladi, lekin ayoli haqida aytilgan haqorat so‘zlarga bardosh bera olmaydi. Bu maqol erkaklar

orasida keng tarqalgan tushunchani aks ettiradi. Ayollar bilan bog‘liq masalalar doimo murakkab va qiyin bo‘lgan.

Arab maqollarida ayolning jismoniy go‘zalligi qadrlanib, unga alohida e’tibor berilgan. Bunga quyidagi maqol misol bo‘la oladi:

النظر في الخضرة يزيد في البصر، والنظر إلى المرأة الحسناء كذلك. (Al-Maydani , 1976, p. 547)

Yashil rangga boqish ko‘rish qobiliyatini oshiradi, chiroyli ayolga qarash ham shunday.

Bu maqolga ko‘ra, chiroyli ayolga qarash insonning ko‘rish qobiliyatini oshiradi. Maqolda jismoniy go‘zallikka katta urg‘u berilgan va erkakni chiroyli ayolni tanlashga undaydi. Lekin shu bilan birga, bu qarash islomiy ta’limotlarga zid keladi, chunki Islomda begona ayollarga tikilib qarash taqiqlangan va ko‘zni ehtiyot qilish buyurilgan.Va yana, umr yo‘ldosh tanlayotganda diniga ahamiyat berih ham ta’kidlab o‘tilgan.

Xulosa. Ayollar haqida xalq maqollarida juda keng tasvir berilgan bo‘lib, ular jamiyatdagi o‘rniga, yoshi, oiladagi mavqeiga va xulq-atvoriga qarab turlicha baholangan. Maqollarda ona siymosi eng yuksak maqomda tasvirlanib, uning mehribonligi, fidoyiligi va oiladagi ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Qiz farzand haqida esa ikki xil qarash mavjud bo‘lib, ba’zi maqollarda qizning xonadondagi baraka ekanligi aytilsa, boshqalarida esa o‘g‘il farzand bilan taqqoslaganda, uning oilaga kamroq hissa qo‘shishi haqida fikr bildiriladi.

Turmush qurish bilan bog‘liq maqollarda erkaklarning ayol tanlash mezonlari va jamiyatning ayollarga qo‘ygan talablarini kuzatish mumkin. Bu borada asosan nasl-nasab, sadoqat va uy ishlari bilan bog‘liq fazilatlar oldingi o‘ringa qo‘yilgan. Oila hayotiga oid maqollarda ayolning eriga va oilasiga bo‘lgan munosabati, uning xulq-atvori oilaviy baxtga ta’sir qilishi haqida ko‘plab hikmatli so‘zlar mavjud.

Keksaygan ayollar haqidagi maqollar esa ikki tomonlama talqin qilinadi. Ba’zi maqollarda keksa ayollar donishmand, tajribali inson sifatida tasvirlansa, boshqalarida ular oila hayotiga aralashib, mojarolar keltirib chiqaradigan shaxs sifatida berilgan. Xususan, qaynona va kelin o‘rtasidagi munosabatlar haqida ko‘plab tanqidiy maqollar shakllangan.

Umuman olganda, ayollarga oid maqollar ularning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini, jamiyat va oila oldidagi mas’uliyatini ko‘rsatib beradi. Shu bilan birga, ushbu maqollarda an’anaviy jamiyat qarashlari aks etgani, ayrim hollarda ayollarga nisbatan noxolis munosabat ham kuzatilishi mumkin. Shunday bo‘lsada, xalq maqollari qadimiy dunyoqarashni, urf-odatlarni va ayollarning jamiyatdagi o‘rnini o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi.

Fodalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shomusarov, Sh.G‘. (2002). Historical and comparative analysis of Arab and Uzbek folklore. Arab va o‘zbek folklori tarixiy-qiyosiy tahlili. – Tashkent: Science. 302 p. (in Uzbek)

2. Mirzayev T. (2005). Uzbek folk proverbs. Sharq publishing and printing joint-stock company. O‘zbek halq maqollari. – Tashkent: Editorial office. 278 p. (in Uzbek)

3. Al-Maydani, Collection of Proverbs Vol. 2 Majmuat – al – amsal. - Beirut. Dar al-marifa. (in Arabic)

4. Abdul Karim Juhayman. (1963). Popular proverbs from the heart of the Arabian Peninsula. Al-Amthal al-Sha‘biyyah fi Qalb al-Jazirat al-‘Arab. – Bairut : Dar al-Thaqafah. 430 p (in Arabic)

5. Qoda Butarn. (1987). Algerian Popular Proverbs, translated by Abdel Rahman Al-Haj Saleh. Al-Amthal al-shaʿbiyyah al-Jaza‘iriyyah. – Dar al-Nahda. 256 p. (in Arabic)

6. Rabah Khadoussi. (1997). Encyclopedia of Algerian Popular Proverbs. Mavsu‘at al-Jaza‘ir fī al-amthal al-sha‘biyyah. – Dar al-Hadara.176 p. (in Arabic)

7. Izziddin Jilavji. (2007). Algerian Popular Proverbs in Setif, Algeria: Publications of the House of Culture of the State of Setif. Al-Amthal al-shaʿbiyyah al-Jaza‘iriyyah bi-Stif, Jaza‘ir: Manshurat Dar al-Thaqafah li-Vilayat Stif. – Algeria: sitif regional house of culture publishing house. 342 p (in Arabic)

8. Abdel Rahman Rabah. (2000). Qal Adhoub. Qal Azhub. – Algeria: Tab ala hisab al-mu‘allif, vakil al-tavzi. 245 p. (in Arabic)

9. Hazar Najjar. https://www.noonpost.com/37445/, (July 10, 2020)